

**YUSUF HAMADONIYNING KOMIL SHAXSNING TARKIB
TOPISHIDAGI G'OYALARI VA UNI TARBIYALASHNING
PSIXOLOGIK TAHLILI**

Nabiyev Muhrodbek Bobirovich

Zarmed Universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada komil shaxs darajasiga yetish uchun Yusuf Hamadoniyni ibratli ishlari va nimalarga e'tibor berish kerakligi va qanday qilib komillikka yetishish mumkinligi haqida fikr etilgan.

Kalit so'zlar: komil inson, riyozat, mujohada, zikr, xirqa(kiyim), halol luqma, fiziologik, psixologik, tibbiy, uyqu.

Аннотация: В этой статье рассматриваются поучительные работы Юсуфа Хамадани, на что следует обратить внимание и как достичь совершенства, чтобы достичь уровня совершенного человека.

Ключевые слова: совершенный человека, рият, пытаться, зикр, хирка(одежда), честный вкус, физиологический, психологический, медицинский, сон.

Annotation: This article examines the idea of how to reach perfection through Yusuf Hamadani's exemplary work and what to pay attention to.

Keywords: Perfect person, fasting, covenant, mention, apparel, an honest, bite, physiological, psychological, medical, dream.

Tarixdan ma'lumki, islom olamida diniy qadriyatlar bilan yonma-yon tasavvuf ta'limoti ham rivojlanib borgan. Yurtimiz ko'hna kechmishiga nazar soladigan bo'lsak, bu yurtda asosan yassaviya, xojagon, naqshbandiya, qodiriya kabi tariqatlar faoliyat yuritib, komil insonni kamol toptirish va shakllantirishga ta'sir ettiruvchi vositalar, mexanizmlar, bilim, ko'nikma, malakalarni ishlab chiqib, oqilona mezonlarga asoslangan holda umumbashariy madaniyat rivojlanishiga va ruhiyati sog'lom insonning tarkib topishiga muhim rol o'ynagan. Shular qatorida yassaviya, xojagon, naqshbandiya, kubraviya, qodiriya ta'limotining piru ustozlari, shayx, orif, olim, ulug' karomat va maqomotlar sohibi, Ka'bai Xuroson deya e'tirof etildan Xoja Yusuf Hamadoni (1048-1141) ham bu masalada qimmatli g'oyalar aytgan. Yusuf Hamadoni bir qator asarlarida komil inson haqida o'zining fikr mulohazalarini, insonni shu katta olamning kichik nusxasi ekanligini, koinotdagi barcha narsalar uning tanasida mavjudligi va shuning uchun inson koinotni tafakkur etib, o'zini bilib, Haqni tanishini aytadi.

Shayx Yusuf Hamadoni o'zining "Odob tariqat" asarida (Komil) bir shayx bilan bevosita suhbatdan mahrum bo'lgan murid (Haq yo'li tolibi) har kuni avliyulloh toifasi (Xudoning do'stlari) so'zlaridan sakkiz varaq (on olti bet) mutolaa etishi kerak. Shunga binoan murid (solik) o'z yo'li (suluki)ni va yo'nalishini quyidagi to'rt asosga belgilashi, bino qilishi lozim.

Birinchi asos nafs riyozatidirki,” ...inson shahvat, ya’ni dunyoviy orzu – istagi emas, balki hojat doirasida yeyishi, ichishi, kiyinishi kerak. Agar bir kecha-kunduzda bir marotaba taom yeyish kifoya qilsa, ikki marta yeyishi kerak emas. Modomiki, ochlik og’ir bir mashaqqat ekan, murid hayotini ochlik asosiga qurishi kerak emas. U holdan toyishi va nobud bo’ishi mumkin. To nafs mashaqqatlarga moslashmasa, shayton undan yiroqlashmaydi. Dunyo xayoli ko’z o’ngidan ketmasa va shahvati o’lmasa maqsadga (Haq rizosiga) erisholmaydi. To uzoq muddat ochlikni o’ziga odat va kasb qilib olmasa, albatta, bu asror va ma’naviy hollar qo’lga kiritilmaydi...” [1;96] Ya’ni shaxs ma’lum bir maqsadni oldiga qo’ydimi, endi uni turli xil ikkinchi darajali faoliyatlar chalg’itmasligi lozim. O’ta Oldiga qo’yilgan maqsad asosida harakat qilmog’i, har bir ishda aql bilan ish ko’rmog’i, hissiyotlarga berilmasligi kerak. Hissiyotlarning mustahkam, barqaror, va mukammal emasligi, ularning dinamik stereotiplar tipiga aylanmaganligidan daloalat beradi, faoliyat va xulqning shaxs tomonidan ongli ravishda boshqarish uslubi shakllanmaganligini bildiradi. Insonning doimiy keragidan ortiq ovqatlanishi uni ham fiziologik tomondan, ham psixologik tomondan dangasalikka olib boradi. Zamonavi tibbiyot shuni aytadiki, agarda inson och qolsa, hujayralarning tirik qolishi uchun harakati ortar ekan. Aksincha bo’lsa, to’yib ovqatlanish hujayralarning kam harakatlanishiga va dangasa bo’lib qolishiga olib kelar ekan.

Riyozatning yana bir ko’rinishi uzlat bo’lib, uning ham bir qancha shartlari mavjud. Xilvat va uzlat tariqatning muborak bir asoslaridan bo’lib, uning natijalaridan biri ko’ngil va zehnni muhofaza etishdir... [1;96] Ya’ni shaxs mukammallik sari harakat qilari ekan, bu yo’lda unga turli negativ, pessimistik ruhdagi yot g’oya va aqidalardan ham aqlan, ham qalban uzoqlashishi lozim. Bu jarayonda diqqatli bo’lish lozimligi diqqatning chalg’ishiga olib bormaslik kerakligi aytib o’tilgan. Diqqatning hajmi bir vaqtning o’zida qamrab olishi qanchalik kam bo’lsa, miqdor ham shunchalik sifatli bo’ladi.

Riyozatning boshqa bir turi esa kam uxlashdir. Ko’p uyqu umrni zoye etadi. Badanni bo’shashtiradi. Ish unumi va ishtiyoqini yo’qotadi. Imom G’azzoliy bu haqda yozadilarki: “Kishi bir kunda sakkiz soatdan ortiq uxlamasligi kerak. Aks holda, umrinng uchdan birini yo’qotadi”. [1;96] Agarda inson komillikka intilar ekan, albatta oldiga qoyilgan maqsad orqali ildam harakat qiladi. Va shu qatorda uyqu rejimini ham tartibga soluvchi ma’lum bir metodlardan foydalanadi. Xatti-harakatlar bora bora odatlarda aylanib qoladi. ...I.P.Pavlov aytganidek “Qorovul” markazlar bo’lishi tufayli odam odatda o’rgangan vaqtida uyg’ona oladi [8;392]

Ikkinchi asos – luqmaning va xirqaning halol bo’lishi. Chunki harom luqma tufayli qalbda nur hosil bo’lmaydi. ...Rasullulloh sollallohu alayhi vasallamdan Anas roziyallohu anhu rivoyat qiladi: „Ey Allohning Rasuli, meni duosi qabul bo’ladiganlardan qilib qo’ying”, dedim. U zot: “ Ey Anas, kasbingni pok qilgin, duoning qabul bo’lur. Chunki bir odam bir luqma haromni og’ziga solsa, qirq kungacha duosi ijobat bo’lmaydi”, dedilar...3 [3;62] Ehtimol bir luqma arzimadek tuyular, ammo uning asorati qirq kungacha inson tanasidan ketmas ekan. Bu yerda

har kim o'zining halol mehnati ortidan kun ko'rishga, birovlarining qo'liga qarab qolmaslikka, birovdan biror narsa tama qilmaslikka targ'ib qilingan. Xirqa(kiyim)ning toza bo'lishidan maqsad, doimo tozalikka, ozodalikka, saramjolarishta bo'lishga da'vat etyapti. Shu bilan birgalikda ibodatning bir ruknini ado etgan hisoblanadi, ibodatning lazzatini biladi. Manashu ikki amalning o'zi astoydil bajarilsa, barcha ishlar tuzaladi.

Uchinchi asos mujohada bo'lib, u shayton dunyo va yomonlikka buyuruvchi nafs singari botiniy dushmanlarga qarshi mujohada qilmoq – kurashmoqdir..., [1;99] ... Yusuf Hamadoniy kamolot uchun zarur – uchunchi asos deb, “mujohada”ni kiritganlar. Mujohada – bu kurashmoq, ya'ni shaytoniy va dunyoviy, shahvoniy buzuq ishlarga buyuruvchi fikrlar bilan kurashmoqlikni bildiradi. Inson doimo shayton vasvasasiga, nafs istaklariga va dunyoga bog'lanib qolishga qarshi kurashishi kerak. Shulardan mosivo bo'lsa, kamolotga yetadi... [5;34] Inson nafsila kurashishi yoki unga mag'lub bo'lishi natijasida Alloh oldidagi darajasi hayvondanda past, farishtadanda ulug'roq bo'ladi. Shaxs o'z oldiga qo'ygan aniq maqsad yo'lida, uni chalg'itadigan ikkilamchi faoliyatlarga e'tiborning berilishi, aniq faoliyatdan chetlashtiradi. Ish unumdorligining pasaytiradi. Yana qo'shimcha qilib shuni aytilish lozimki, Yaratganga qurbat hosil qilish yo'lidagi mujohadada doimo diqqat - e'tiborni aniq maqsadga yo'naltirmasa, Alloh oldidagi darajasi darhol tushib ketadi. Va yana boshidan boshlashga to'g'ri keladi. Bu jarayon bir umr davom etib oxiri shunday xotima yasaydi.

To'rtinchi asos zikrdir. Shuni bilginki, ibodat, taqvo, riyozat va mujohada singari bir qancha yo'llar bo'lsa-da, ammo Janobi Haqni zikr etmaguningcha haqiqat yo'li ochilmaydi. Alloh taoloning ko'plab ismlari bilan zikr qilish mumkin bo'lsa-da, ismlarning sultoni “Alloh”dir. Bundan keyin “Subhonalloh”, “Alhamdulillah”, “Allohu Akbar”, “La ilaha illalloh” kalimalarini aytib yurishdir. Qur'oni Karimning “Oli Imron” surasi, 191-oyatida, Ular turganda ham, o'tirganda ham, yotganda ham Allohni eslaydilar. Ushbu oyatda buyurilganidek, doimiy zikr tufayli solik o'ngidan parda, zulmat va xayollar ko'tariladi. Allohning lutf buluti uni qamrab oladi, fazilat yomg'iri yog'a boshlaydi, latofat va saodat shamoli esadi. Ana shunda ba'zi sirlar namoyon bo'ladi, bazi latoif sadolari eshitiladi. So'z bilan tushuntirib, izohlab bo'lmaydigan ba'zi ilohiy lazzatlarning mazasi totiladi. [1;100-102] Zikr Yaratganga qurbat hosil qilishning eng oson va doimiy ajr olib keladigan amaldir. Doimiy tilda va qalbda zikr etish, shaxsni maqsadlarini aniq qo'yishga, dunyo ne'matlariga aldanmaslikka, ulardan ehtiyoj darajasidan ortiq foydalanmaslikka, ilm o'rganib, ilm o'rgatishga undovchi motivatsiya vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Хожа Юсуф Ҳамадоний. Рутбат ул-хаёт (Ҳаёт мезони). Тошкент. <<O'zbekiston>> нашриёти 2019.
2. Хожа Абдуҳолиқ Гиждувоний. Мақомоти Юсуф Ҳамадоний. Васиятнома. Тошкент нашриёти 2019.
3. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Ҳалол очик – ойдиндир, ҳаром очик – ойдиндир. <<Hilol - Nashr>> Тошкент. 2022.
3. Нажмиддин Комилов. Тасаввуф. Тошкент. <<Movarounnahr>> - <<O'zbekiston>> 2009/
4. Г.Н.Наврўзова. Абдуҳолиқ Гиждувоний. <<Имом Бухорий халқаро маркази>> нашриёти Самарқанд 2020.
5. Г.Н.Наврўзова. Нақшбандия – камолот йўли. Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси. “Фан” нашриёти. Тошкент. 2007
6. Дилбар Ақобирова. Юсуф Ҳамадонийнинг <<Одоб тарикат>> асарида бунёдкор ғоялар. Тошкент. Наврўз нашриёти. 2018.
7. Ғафуржон Раззоқов, Комилжон Раҳимов. Хожагон – Нақшбандия тарикат ва етти пир. Тошкент <<O'zbekiston>> 2020
8. Rajamurodov Z.T., Rajabov A.I. Odam va hayvonlar fiziologiyasi. Toshkent.” Tib kitob” 2010.
9. Э.Ғозиев. Умумий психология . Ўзбекистон Файласуфлари Миллий Жамияти нашриёти. Тошкент. 2010

